

Monopoliyaga qarshi komplaens xizmati

Raqobat - iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili!

Raqobat - iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanib, u nafaqat bozorning samarali faoliyatiga, balki eng avvalo iste'molchilar farovonligini kafolatlashga xizmat qiladi.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi Jamiyatning xavfsiz biznes hamkor sifatidagi ishonchliligini mustahkamlash orqali uning bozordagi boshqa xo'jalik subyektlariga nisbatan raqobatdoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi sog'lom raqobat qilish madaniyatini shakllantiradi va Jamiyatning barcha darajalardagi xodimlari ularning faoliyati qanday tartibga solinishi, muayyan vaziyatlarda qanday xatti-harakatlarni amalga oshirishlari borasidagi yuqori xabardorlik va mavjud normalarga rioya etishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6019-sonli Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 114-son qaroriga muvofiq, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2024-yil 5-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish" to'g'risidagi 53-sonli buyrug'iga asosan monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy qilingan.

Shuningdek, vazirlik tizimida Monopoliyaga qarshi komplayens nazoratini yanada takomillashtirish va raqobat muhitini yaxshilash hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida "YO'L XARITASI" tasdiqlangan.

"YO'L XARITASI"da ustuvor vazifalar belgilandi, ular:

Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Vazirlik tizimi faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va monitoring qilish;

Vazirlik tizimida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda rahbarlar tomonidan o'z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Vazirlik tizimida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta'minlash;

Vazirlik xodimlarida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo'nalish bo'yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o'qitish yo'li bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

**Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri
B.Zaxidov**